

AKTUAR MOLIYA VA BUXGALTERIYA HISOBI ILMIY JURNALI

Vol. 4 Special Issue | pp. 266-271 | ISSN: 2181-1865
Available online <https://finance.tsue.uz/index.php/afa>

O'ZBEKISTONDA IJTIMOYIY-IQTISODIY JARAYONLAR RAQAMLASHUVIDA NOAN'ANAVIY BANDLIK TURLARINING RIVOJLANISHI



Safarova Dilshodaxon Eshmuxammadovna,
Farg'ona davlat universiteti tayanch doktoranti

Annotatsiya. O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar raqamlashuvda aholining turmush darajasini yaxshilash hamda kambag'allikni qisqartirish uchun aholi bandligini ta'minlash eng muhim vazifalardan hisoblanadi. Buning uchun noan'anaviy bandlik turlarining rivojlanishiga e'tibor qaratish zarur.

Kalit so'zlar: Frilans, Frilanser, Masofadan turib ishlovchi, Frilans platformalari, "gig iqtisodiyoti".

РАЗВИТИЕ НЕТРАДИЦИОННЫХ ВИДОВ ЗАНЯТОСТИ В УСЛОВИЯХ ЦИФРОВИЗАЦИИ СОЦИАЛЬНО-ЭКОНОМИЧЕСКИХ ПРОЦЕССОВ В УЗБЕКИСТАНЕ

Аннотация. Одной из важнейших задач цифровизации социально-экономических процессов в Узбекистане является обеспечение занятости населения в целях повышения уровня жизни населения и сокращения бедности. Для этого необходимо обратить внимание на развитие нетрадиционных видов занятости.

Ключевые слова: Фриланс, Фрилансер, Удаленный работник, Фриланс-платформы, «gig economy».

DEVELOPMENT OF NON-TRADITIONAL EMPLOYMENT TYPES IN THE DIGITALIZATION OF SOCIO-ECONOMIC PROCESSES IN UZBEKISTAN

Abstract. One of the most important tasks in the digitalization of socio-economic processes in Uzbekistan is to ensure the employment of the population in order to improve the standard of living of the population and reduce poverty. For this, it is necessary to pay attention to the development of non-traditional types of employment.

Keywords: Freelance, Freelancer, Remote worker, Freelance platforms, "gig economy".

Bugun davlat oldida turgan eng muhim vazifalardan biri bu fuqarolari uchun munosib hayotni ta'minlashdir. Turmush darajasini yaxshilash va o'rta qatlam ulushini oshirish bo'yicha oldinga qo'yilgan vazifani bajarishdagi eng muhim omil bu aholi bandligini ta'minlashdir. Chunki bu davlat byudjetiga tushadigan ijtimoiy zo'riqishni

kamaytiradi va mehnatga layoqatli yoshdagi fuqarolar o'rtasida kambag'allik darajasini pasaytiradi.

O'zbekistonda ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar raqamlashuvida bandlik bilan bog'liq muammoni, yangi bandlikning ilg'or shakli – masofadan turib ishlash orqali hal etish mumkin. Zamonaviy bandlikning bu shakli turli xil nomlar bilan ataladi, ya'ni internet orqali ishlash, uzoqdan turib ishlash yoki frilans (inglizcha. freelance – “erkin rassom”, shtatdan tashqari xodim, erkin professional).

Hozirda, frilans xizmatlari bozori G'arbiy Evropa va AQShda ancha rivojlangan bo'lib, butun dunyo bo'ylab tez sur'atlarda rivojlanib bormoqda.

Freelanser bu internet orqali masofadan turib ishlaydigan odamlar bo'lib, uyda o'tirib, boshqa odamlarning yoki kompaniyalarning buyurtmalarini bajarish orqali pul ishlaydi. Freelans bilan masofadan turib ishlovchilarni farqlash lozim

- Freelans – ishdan bo'sh vaqtda qo'shimcha daromad qiluvchi, yoki, buyurtma qidirib, bir martalik ishlarni bajaruvchi shaxslar.

- Masofadan turib ishlovchi – bir buyurtmachi bilan, yoki, kompaniyada doimiy ishlovchi shaxslar.

Internet orqali masofadan turib ishlaydigan kasblar ro'yxatiga guruhlar bo'yicha quyidagilarni kiritishimiz mumkin [1]:

Matn yozish va ishlov berish bo'yicha:

- Kopirayter; - Rerayter;
- Yozuvchi; - SEO kopirayter;
- SEO rerayter; - Content meneger;
- Email xabar bo'yicha mutaxasis;
- Muharrir; - Matn yozuvchi.

Dizayn va chizish kasbiga bo'g'liq ishlar:

- Web dizayner; - Grafik dizayneri;
- Kompyuter o'yinlari dizayneri;
- Kiyim-kechak dizaynerlari; - Arxitektor.

Sayt tuzish va programmist:

- Mobil dasturlar yozuvchi; - Flash dasturchi;
- Veb-sahifani optimallashtiruvchi;
- SEO mutaxassis; - Sayt tuzuvchi (Webmaster).

Chet tillardan tarjima:

- Badiiy matnlar tarjimoni; - Texnik tarjimon;
- Sayt tarjimoni; - PR-meneger;
- Kompyuter o'yinlari va o'rganuvchi vieo darslar tarjimoni;
- SMM-menejer; - Internet marketolog;
- Ijtimoiy tarmoqlar orqali reklama qiluvchi mutaxassis;
- Ijtimoiy tarmoqlarni rivojlantiruvchi mutaxassis;
- YouTube kanalini rivojlantiruvchi mutaxassis;
- Ijtimoiy tarmoqlardagi guruhlar administrator;
- Reklama kompaniyasini sozlovchi mutaxassis (Yandex Direkt, Google AdWords).

Pul ishlash uchun eng oddiy kasblar:


- Transkribator (Video va audiolarni matnga aylantiruvchi);

- Masofaviy dispatcher (taxi);
- Onlayn maslahatchi (onlayn-do'kon xizmatchisi);
- Talabalar ishining muallifi;
- Texnik qo'llab-quvvatlash bo'yicha mutaxassis;
- Shaxsiy yordamchi.

Boshqa kasblar:

- Masofaviy hisobchi (buxgalter); - Sotuvlar bo'yicha meneger;
- Video muharrir (video montajchi); - Moliyaviy maslahatchi;
- Maslahatchi mutaxassis (shifokor, psixolog, advokat);
- Webinar o'tkazuvchi, koucher, o'rgatuvchi.

Yuqoridagi kasblarning barchasini internet orqali mutloqo bepul o'rganish mumkin, lekin afsuski, bu ma'lumotlarning aksariyati rus va ingliz tillarida bo'lgani uchun tillarni bilmaydigan yoshlar qiyinchilikka uchramoqda.



1-rasm. Freelancer bo'lib pul toppish bosqichlari

1-rasmdan ko'rinib turibdiki, Freelancer bo'lib pul toppish uchun avvalo, Frilans platformalaridan birida ro'yxatdan o'tish lozim. So'ngra platform orqali ishlab pul chiqarib olish mumkin.

O'zbekistonda e'lon beruvchi saytlarni hisobga olmaganda frilans birjalar yo'q. Shuning uchun chet eldagi birjalardan foydalanish mumkin [2]:

1. [Freelancer.com](https://www.freelancer.com) – eng katta birjalardan biri. O'z raqobatchilari Scriptlance, rentacoder va boshqa birjalarni sotib, o'ziga qo'shib olish hisobiga auditoriyasi kengaygan. Ishlab topilgan pulni Skrill, Paypal va [Payoneer](https://www.payoneer.com)ga o'tkazib beradi.

2. [Upwork.com](https://www.upwork.com) – yana bir katta birja. Odesk va Elance birjalarining birlashuvidan hosil bo'lgan. Saytda buyurtmalardan tashqari doimiy ish uchun vakansiyalar ham bor. To'lovni [Payoneer Mastercard](https://www.payoneer.com), Skrill, Paypal va bank hisobiga o'tkazish mumkin.

3. www.guru.com – ko'p ma'lumotga ega emasman, sababi ro'yhatdan o'tganim bilan buyurtma olmaganman.

4. fl.ru – Rossiyadagi eng katta frilans birja.

5. weblancer.net

6. freelansim.ru

O'zbekistonda 2022-yilda frilanser sifatida ish izlovchilar soni uch barobardan oshgan [3]. Bu haqda "HeadHunter" "Spot"ga ma'lum qilgan. Ular orasida IT

mutaxassislar eng ko'p frilanserlik xizmatlarini taklif etuvchi mutaxassislar sifatida yetakchi bo'lgan.

Frilanserlikning jozibador jihatlari haqida quyidagilarni ajratib ko'rsatish mumkin:

- mustaqillik (hamma frilanserlar uchun ham mos emas);
- erkin ish shakli (talabalar uchun juda qulay);
- uyda ishlash imkoniyati (bu ayniqsa, yosh onalar va imkoniyati cheklangan odamlar, shuningdek, sog'lig'ida muammolari bo'lganlar uchun qulay);
- shaxsiy biznesni tashkil qilish uchun nisbatan past chegara (odatda frilanserda ofis ijaraga olish, transport xarajatlariga pul sarflashning hojati yo'q, ayrim turdagi maxsus vazifalarni bajarish uchun qimmatbaho texnik jihozlar xarid qilishdan tashqari);
- faqat o'zi uchun ajratilgan ishni bajarish;
- qulay ish sharoitlari (lekin har doim emas);
- ish va oila o'rtasida maqbul muvozanatga erishish;
- jamiyat hayotida ko'proq ishtirok etish imkoniyati;
- mustaqil ish tanlash, qiziq bo'lmagan, noqulay loyihalardan bosh tortish;
- mustaqil ravishda sherik tanlash imkoni.

O'zbekistonda IT mutaxassislar (dasturchilar, ishlab chiqaruvchilar va boshqalar) eng ko'p frilanser sifatida o'z xizmatlarini taklif qilmoqda. Undan keyingi o'rinlarda esa rassomlar, dizaynerlar hamda savdo menejerlari turibdi.

2022-yilda ish beruvchilar frilanserlarga sohasi, tajribasi va malakasiga qarab 1,5 mln so'mdan maksimal 20 mln so'mgacha maosh taklif qilgan. 2025-yilda butunjahon frilans bozori hajmi \$13 trln.dan oshishi kutilmoqda. Ekspertlar fikricha, O'zbekiston ham ushbu bozorga kirishi zarur. Agar bu jarayon uzoq muddat cho'zilsa, mamlakat ko'p imkoniyatlarni qo'ldan boy berilishi mumkin.

2021 yilning avgust oyida mamlakatda frilanserlikni o'rganishga o'ljallangan platforma ishga tushirildi. 2022-yilning o'n oyida o'zbekistonlik frilanserlarning "Upwork", "Fiverr", "Toptal" hamda "Envato" kabi 7 ta xorijiy frilanserlik platformalaridan ishlab topgan daromadlari jami \$9 mln.dan oshgan.

Frilanserlikning bir qator kamchiliklari ham mavjud bo'lib, Frilanser uchun:

- doimiy ravishda yangi buyurtmalarni izlash (ortiqcha moliyaviy xarajatlar);
- notekis daromadga ega bo'lish, shaxsiy byudjetni doimo rejalashtirish;
- bankdan kredit olishda arizalarni ko'rib chiqish jarayonidagi muammolar;
- ba'zi psixologik shaxs turlari uchun, bu kompaniyada ishlashdan ko'ra ko'proq asabiy ish uslubiga aylanishi mumkin;
- shaxsiy buxgalteriya yuritish va soliq to'lashda qiyinchiliklar;
- o'z-o'zini motivatsiya qilish va vaqtni boshqarish uchun qo'shimcha kuch talab etilishi;
- ijtimoiy kafolatlarning yo'qligi;
- ba'zi hollarda, tibbiy sug'urta uchun to'lash kerakligi;
- davlat nafaqa tizimining turlariga qarab, frilanser nafaqa to'lovlarini umuman olmaydi yoki eng kam nafaqa oladi;
- rasmiy bandlikning yo'qligi yoki soliq imtiyozlari tufayli qonun bilan yuzaga kelishi mumkin bo'lgan muammolar;

- agar frilanser o'zining daromadini deklaratsiya qilmasa va daromad solig'ini to'lmasa, dunyoning aksariyat yurisdiksiyalarida qonun bilan bog'liq muammolar bo'lishi mumkin;

- ish beruvchining firibgarlik yoki boshqa nomaqbul xatti-harakatlar xavfi yuqori bo'lib, u holda frilanserga shartnoma munosabatlari mavjudligini isbotlash qiyin bo'ladi.

Odatda, frilanserlar qisqa muddatli, kichik hajmdagi ma'lum ish yoki loyihani amalga oshirish uchun ham jalb qilinadi. Masalan: reklama bukletlar uchun matnlar yozish, tashkilotning logotipini ishlab chiqish, veb-sahifalar yaratish, chizmalar tayyorlash, matnlarni tarjima qilish, maqola yozish va boshqalar.

Demak, internet davri bilan globallashib borayotgan dunyoda pandemiya paytida keng tus olgan "gig iqtisodiyoti" bugungi kunda jadal ravishda o'sib bormoqda.



Gig so'zi, musiqa tarmog'idan olingan atamadir. Bu qisqa muddatli ishlar degan ma'noni anglatadi. Iqtisodiy nuqtai nazardan esa, vaqtinchalik ish yoki vaqtinchalik bandlik deyish mumkin.

Freelance faoliyat yuritayotganlar uchun turli imkoniyatlar taqdim etgan gig iqtisodiyoti, ya'ni Freelance faoliyat shaklini o'z ichiga olgan gig modeli, yuqorida ta'kidlaganimiz kabi ba'zi kamchiliklarga ham ega.

Xodimlar uchun ish beruvchi bilan yakka o'zi shug'ullanishi, kasaba uyushma huquqlaridan mahrum qolishi yoki doimiy daromadga ega bo'lmasligi kabi xavfli jarayondek ko'rinishi mumkin.

Ammo boshqa jihatdan, bu bir imkoniyatdir. Chunki moslashuvchan faoliyat yordamida, inson o'z o'ziga yangi faoliyat muhitlari yarata olishi mumkin. Ayniqsa, raqamli platformada yangi ish imkonlariga erishish ehtimoli yuqori hisoblanadi.

Yana shuni ta'kidlash lozimki, yirik kompaniyalar ham tobora ortib borayotgan talablarni qondirish ham da vaqtni tejash uchun gig iqtisodiyoti yordamida keng tarqayotgan freelance ish modeliga murojaat qilishni davom ettirmoqda.

Bir kishini ishga olib unga to'liq ish haqqi to'langudek bo'lsa unda, uning harajatlari bilan birga chiqimi ham ko'payadi. Ammo unga 5 soatlik, kundalik yoki oylik ish topshirilsa, unda, buning chiqimi ham kamayadi.

Bugungi kunda kompaniyalar muntazam ravishda ishlagan o'z xodimlari bo'lganidek o'zining va mijozlarining ishlarini tashqaridan, freelance modelida ish olib borganlar bilan ham hal qilish imkoniga ega bo'lmoqdalar.

Xulosa o'rnida shuni aytish lozimki, ijtimoiy-iqtisodiy jarayonlar raqamlashuvida kambag'allikni kamaytirish va bandlik bilan bog'liq muammoni hal qilishning yana bir imkoni sifatida O'zbekistonda frilanserlar faoliyatini rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi jihatlarga e'tibor qaratishimiz lozim, ya'ni:

-joylarda yoshlar orasida frilans faoliyatini keng targ'ib qilish maqsadida, maxsus intensiv onlayn kurslar va mahorat darslarini ishlab chiqib, amalga oshirish;

- chekka hududlarda elektr ta'minoti va Internetning yuqori tezligini doimiylikini ta'minlash yuzasidan amaliy takliflar ishlab chiqib, ijroga qaratish;

- hududlarda mavjud kafe, kovorking-markazlari, park va kutubxonalar moddiy-texnik bazasini yaxshilash hamda ular sonini ko'paytirish va kengaytirish bo'yicha choralar ko'rish;

- frilanserlar faoliyatini inobatga olgan holda, ularga kredit ajratish va soliqqa tortish tizimini ishlab chiqish va joriy etishdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati;

1. <https://uzinterbiz.com/frelanser/uyda-turib-ishlash-uchun-ish-topish/html>
2. <https://walker.uz/2018/01/06/frilans/>
3. <https://www.spot.uz/oz/2023/02/01/freelance-uzb/>

Copyright: © 2024 by the authors. This work is licensed under a Creative Commons Attribution-4.0 International License (CC - BY 4.0)

